

Oriental Journal of Education**THE MORAL AND ETHICAL POSITION OF THE TEACHER AND ITS INFLUENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS****Muxlisa Omonova***Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy**Associate Professor at the Department of Pedagogy**Alfraganus University**Email: omonovamuxlisa15@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Moral and ethical position, professional ethics, deontology, pedagogical culture, personal example, empathetic communication, educational process.

Received: 04.12.25**Accepted:** 05.12.25**Published:** 06.12.25

Abstract: The moral and ethical position of a teacher is closely connected with the content, direction, and quality of interpersonal communication in the educational process. It manifests as a crucial factor in shaping students' value systems, enhancing social responsibility, and establishing humanistic principles within the learning environment. This study scientifically analyzes the influence of personal values, professional ethics standards, deontological approaches, empathetic communication, and the phenomenon of responsibility—components of the teacher's ethical position—on the educational process. Additionally, the teacher's moral-philosophical views, practice of personal example, reflective activity, and communicative culture are examined as factors that enhance educational effectiveness. The results demonstrate that a teacher's moral and ethical position plays a significant role in fostering psychological stability, pedagogical cooperation, and socio-moral maturity in students during the learning process.

PEDAGOGNING MA'NAVIY-AXLOQIY POZITSIYASI TA'LIM JARAYONIDAGI TA'SIR DARAJASI**Muxlisa Omonova***Alfraganus universiteti, "Pedagogika" kafedrası v.b. dotsenti**pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**omonovamuxlisa15@gmail.com**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ma'naviy-axloqiy pozitsiya, kasbiy etika, deontologiya, pedagogik madaniyat, shaxsiy namuna, empatik muloqot, ta'lim jarayoni.

Annotatsiya: Pedagogning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi ta'lim jarayonining mazmuni, yo'nalishi va shaxslararo muloqot sifati bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'quvchilar ongidagi qadriyatlar tizimini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish va ta'lim muhitida insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqotda pedagogning axloqiy pozitsiyasi tarkibiga kiruvchi shaxsiy qadriyatlar, kasbiy etika me'yorlari, deontologik yondashuvlar, empatik muloqot va mas'uliyat fenomenining ta'lim jarayoniga ta'siri ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchining axloqiy-falsafiy qarashlari, shaxsiy namuna ko'rsatish amaliyoti, refleksiv faoliyat va kommunikativ madaniyat ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari pedagogning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi o'quv jarayonida psixologik barqarorlik, pedagogik hamkorlik va ijtimoiy-ma'naviy yetuklikni shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

**МОРАЛЬНО-ЭТИЧЕСКАЯ ПОЗИЦИЯ ПЕДАГОГА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС**

Мухлиса Омонова

Доцент кафедры педагогики, Университет Альфраганус,

Доктор философии (PhD) по педагогике

Email: omonovamuxlisa15@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Морально-этическая позиция, профессиональная этика, деонтология, педагогическая культура, личный пример, эмпатическое общение, образовательный процесс.

Аннотация: Морально-этическая позиция педагога тесно связана с содержанием, направлением и качеством межличностного общения в образовательном процессе. Она проявляется как ключевой фактор формирования системы ценностей учащихся, укрепления социальной ответственности и закрепления гуманистических принципов в образовательной среде. В настоящем исследовании научно анализируется влияние личных ценностей, норм профессиональной этики, деонтологических подходов, эмпатического общения и феномена ответственности — составляющих этической позиции педагога — на образовательный процесс. Кроме того, морально-философские

взгляды педагога, практика личного примера, рефлексивная деятельность и коммуникативная культура рассматриваются как факторы, повышающие эффективность обучения. Результаты исследования показывают, что морально-этическая позиция педагога играет важную роль в формировании психологической устойчивости, педагогического сотрудничества и социально-нравственной зрелости учащихся в процессе обучения.

Kirish. Ta'lim jarayonida pedagog shaxsining ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi o'quv muhitining barqarorligi, o'quvchilarning shaxsiy rivoji va ta'lim sifatini belgilovchi markaziy omillardan biridir. Ma'naviy-axloqiy pozitsiya pedagogning shaxsiy qadriyatlari, kasbiy mas'uliyati, axloqiy qarorlari, muloqot madaniyati va kasbga sodiqligida namoyon bo'lib, uning butun pedagogik faoliyatini boshqaruvchi ichki me'yorlar tizimini tashkil etadi. Zamonaviy pedagogika tadqiqotlarida pedagogning ma'naviy pozitsiyasi nafaqat kasbiy burchni bajarish darajasi, balki ta'lim jarayonida insonparvarlik, adolat, halollik, hurmat, empatiya kabi tamoyillarning izchil qo'llanishi orqali ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini ta'minlovchi axloqiy fenomen sifatida baholanadi.

Pedagogning axloqiy pozitsiyasi shaxslararo muloqotda o'zining eng ravshan ko'rinishini topadi. O'qituvchining talabaga bo'lgan munosabati, baholashdagi adolati, fikr xilma-xilligiga hurmati, nizoli vaziyatlarni boshqarishdagi bosiqliqi va emotsional barqarorligi ta'lim jarayonining umumiy psixologik iqlimini belgilaydi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, o'quvchi pedagogning axloqiy pozitsiyasini nafaqat so'zlari orqali, balki uning kundalik xatti-harakatlari, fikr yuritish uslubi va shaxsiy namunasi orqali qabul qiladi. Shu jihatdan pedagogning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot pedagog shaxsining ma'naviy-axloqiy pozitsiyasining tarkibiy tuzilmasini aniqlash, uning ta'lim jarayonidagi ta'sir darajasini tahlil qilish hamda mazkur pozitsiyaning pedagogik amaliyotda namoyon bo'lish mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan.

Asosiy qism. Pedagogning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi kasbiy faoliyatda shaxsning axloqiy qarashlari, deontologik me'yorlarga munosabati, empatik muloqotga tayyorligi va shaxsiy namunasida namoyon bo'ladigan murakkab psixologik-pedagogik hodisa sifatida talqin etiladi. Ilmiy adabiyotlarda pedagogning ma'naviy pozitsiyasi shaxsiy qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyati, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati va kasbiy e'tiqodining uyg'unlashuvi orqali shakllanishi ta'kidlanadi. Bunday uyg'unlashuv pedagogning kasbiy faoliyatida mas'uliyat, adolat, halollik, hurmat va bosiqlik kabi sifatning barqaror namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogning axloqiy pozitsiyasi, avvalo, uning shaxsiy namunasida ko'rinadi. O'quvchi pedagogning so'zidan ko'ra amaliga ko'proq e'tibor beradi,

shu bois o'qituvchining kundalik odobi, muloqot uslubi, o'zini tuta bilishi, muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim taklif qilishi ta'lim jarayonining tarbiyaviy samaradorligini belgilaydi. Shaxsiy namuna pedagogning ma'naviy pozitsiyasining eng ta'sirchan tarbiyaviy mexanizmi sifatida qaraladi.

Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasi uning shaxsiy va kasbiy rivoji o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi. Bu jarayon pedagogning

o'z qadriyatlarini professional vazifalari bilan uyg'unlashtirishini,
har bir o'quv vazifasida axloqiy va pedagogik qarorlarni asoslashini,
kasbiy stress va qiyinchiliklarga bardosh berishini ta'minlaydi.

Shu orqali pedagog talabalarga o'z kasbini mas'uliyat bilan bajarish, axloqiy qarorlarni qabul qilish va shaxsiy namunalar orqali o'rgatish imkonini beradi.

Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasi uning shaxsiy qadriyatlari bilan mustahkam bog'liq bo'lib, talim jarayonida quyidagi sohalarda o'z ifodasini topadi:

Qaror qabul qilish jarayoni – pedagog o'z kasbiy va axloqiy mas'uliyatini uyg'unlashtirgan holda har bir vaziyatni baholaydi va qaror qabul qiladi. Masalan, baholashda talaba xatolari bilan muloyim va adolatli yondashadi.

Muammoli vaziyatlarni hal etish – nizolar yuzaga kelganda pedagog vazmin, konstruktiv va empatik yondashadi, bu esa o'quvchilar orasida tinchlik va ishonch muhitini yaratadi.

Shaxsiy namunalar orqali tarbiya – pedagogning hayotiy qarashlari va kasbiy etiqodi talabalarga namuna bo'lib xizmat qiladi, ularning ijtimoiy va axloqiy xulq-atvoriga bevosita tasir qiladi.

Pedagogning axloqiy pozitsiyasining ta'lim jarayonidagi ta'siri asosan uch yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- shaxslararo muloqot sifatining oshishi,
- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivoji,
- psixologik muhitning barqarorlashuvi.

Shaxslararo muloqotda pedagogning ochiqqligi, tinglay olish qobiliyati, empatik yondashuvi o'quvchida ishonch uyg'otadi, ijtimoiy-psixologik faollikni oshiradi. O'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etadi, xatolarini tan oladi va konstruktiv fikr bildirishga o'rganadi. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojida pedagogning shaxsiy qadriyatlari bevosita translyatsiya qilinadi. O'qituvchining halollik, adolat, hurmat, mas'uliyat kabi fazilatlarini o'z faoliyatida izchil qo'llashi o'quvchilar ongida ushbu qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda bu jarayon "qadriyatlar modellashtirilishi" sifatida talqin qilinadi.

Psixologik muhitning barqarorlashuviga pedagogning ma'naviy pozitsiyasi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Stressli vaziyatlarda bosiqlik, nizoli holatlarda adolatli yondashuv, baholash jarayonida shaffoflik o'quvchilarda xavfsizlik hissini kuchaytiradi. Bu esa o'quv faoliyatida ijobiy dinamika,

motivatsiya va hamkorlikning oshishiga olib keladi. Pedagogning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasining ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganishda uning kasbiy faoliyatda egallagan psixologik roli alohida ahamiyatga ega. Pedagog shaxs sifatida nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim muhitining ma'naviy mezonlarini belgilovchi, o'quvchilarning ichki dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy yetakchi vazifasini bajaradi. Shu bois pedagogning axloqiy qarashlari va shaxsiy fazilatlarini o'quvchi ongida ijtimoiy tasavvurlar, qadriyatlar talqini va xulq-atvor me'yorlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy adabiyotlarda pedagogning ma'naviy pozitsiyasi ko'p qatlamli fenomen sifatida talqin qilinib, u uch asosiy komponentni qamrab oladi: axloqiy e'tiqod, kasbiy tamoyillar va shaxsiy namuna. Axloqiy e'tiqod pedagogning ichki tamoyillariga, shaxsiy qarashlariga, jamiyat va kasb oldidagi mas'uliyatini qanday qabul qilishiga bog'liq. Kasbiy tamoyillar esa uning faoliyatidagi metodik, deontologik va axloqiy normalarga amal qilish darajasini belgilaydi. Shaxsiy namuna esa — pedagogning barcha fazilatlarining o'quvchilarga bevosita ta'sir etuvchi ko'rinishi sifatida talqin etiladi.

Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasi sinfda ijobiy psixologik muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Ochiq va hurmatga asoslangan muloqot o'quvchilarda xavfsizlik hissinini uyg'otadi, ular erkin fikr bildirishga, xatolarini tan olishga va konstruktiv munozara qilishga o'rganadilar.

Pedagogning sabr-toqat va vazminligi stressli vaziyatlarda talabalarni qo'llab-quvvatlaydi, ularning o'z-o'zini boshqarish va emotsional intizomini rivojlantiradi.

Pedagogning ma'naviy pozitsiyasining ta'siri avvalo sinfdagi psixologik muhitda ko'rinadi. O'qituvchi tomonidan namoyon etilgan samimiylilik, adolat, sabr-toqat, talabchanlik va hurmat o'quvchilar orasida o'zaro ishonchni kuchaytiradi, raqobatni sog'lom ruhda tashkil etadi, ichki motivatsiyani oshiradi. Aksincha, pedagogning befarqligi, keskin munosabati, nohaqligi yoki muloqotdagi qo'polligi sinfda psixologik tanglikni keltirib chiqaradi, o'quvchilarda qo'rquv, ishonchsizlik, o'zini past baholash kabi salbiy holatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Shu ma'noda, o'qituvchining ma'naviy pozitsiyasi ta'lim muhitining barqarorligi va o'quvchilar shaxsiy rivojining psixologik asosini tashkil etadi. O'qituvchining ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi o'quvchilar xulq-atvorining me'yorlashuviga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchining axloqiy fazilatlarini kuzatish orqali ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtiradi: boshqalar fikrini hurmat qilish, odobli muloqot qilish, bahs-munozara madaniyatiga rioya etish, konfliktlarni tinch yo'l bilan hal etish va shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi fazilatlar pedagogning kundalik faoliyatidagi odob-axloq namunalariidan kelib chiqadi. Bu jarayon psixologiyada "model orqali o'rganish" deb talqin qilinadi.

Manaviy-axloqiy pozitsiya talabalarda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradi. Pedagogning odob-axloq namunasi va jamiyatga hurmati o'quvchilar ongida mas'uliyatlilik, jamiyatga foyda keltirish va kasbiy burchni anglash kabi qadriyatlarni shakllantiradi.

Talabalar pedagogning shaxsiy namunasi orqali jamiyat va kasb oldidagi mas'uliyatni organadilar.

Pedagogning ijtimoiy faoliyati, yetakchilik qobiliyati va odob-axloqiy qarorlar qabul qilish uslubi talabalar xulq-atvoriga uzviy tasir qiladi.

Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasini mustahkamlashda refleksiv faoliyat muhimdir:

Refleksiya pedagogga o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi.

Shaxsiy rivojlanish orqali pedagog o'z kasbiy va axloqiy qadriyatlarini uyg'unlashtiradi, bu esa talim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Refleksiv mashg'ulotlar, axloqiy dilemmalar ustida ishlash va empatik treninglar pedagogning pozitsiyasini kuchaytiradi.

Pedagogning axloqiy pozitsiyasi baholash jarayonidagi adolat bilan ham bevosita bog'liq. Baholashdagi shaffoflik, mezonlarning aniq belgilanishi, o'quvchining mehnatiga nisbatan hurmat pedagogning ma'naviy tamoyillariga asoslangan holda qaror qabul qilishini taqozo etadi. Ilmiy tadqiqotlarda baholash jarayonidagi nohaqlik o'quvchilarda darsga qiziqishni susaytirishi, o'zini qadrsiz his qilish hissini uyg'otishi va psixologik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Shu sababli pedagogning adolatga sodiqligi uning ma'naviy pozitsiyasining eng muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Pedagogning ma'naviy pozitsiyasi ta'lim jarayonining tarbiyaviy funksiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi tomonidan talabalarga berilayotgan tarbiyaviy ta'sir bevosita uning axloqiy qarashlari, shaxsiy dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlarga bo'lgan munosabati orqali shakllanadi. O'quvchilar o'qituvchini nafaqat bilim manbai, balki hayotiy tajriba, qaror qabul qilish madaniyati, axloqiy mezon va ijtimoiy tanlovlar borasida ham yetakchi inson sifatida ko'radilar. Shu bois pedagogning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasining izchilligi tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Pedagogning ma'naviy pozitsiyasi ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishida ham markaziy rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zining shaxsiyatiga, kasbiy faoliyatiga, talabalariga va jamiyatga bo'lgan munosabati orqali o'quvchilarda mas'uliyatlilik, burchni anglash, jamiyatga foyda keltirish istagini shakllantiradi. Bu jarayon tarbiya nazariyasida "qadriyatlar translyatsiyasi" sifatida talqin qilinadi. Pedagogning ijtimoiy pozitsiyasi qancha mustahkam bo'lsa, talabalar ongida shakllanadigan ijtimoiy qadriyatlar ham shunchalik barqaror bo'ladi. Shuningdek, pedagogning axloqiy pozitsiyasi ta'lim jarayonida yuzaga keladigan konfliktlarning boshqarilishida ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogning vazminligi, vaziyatni tahlil qila olishi, ikki tomonning manfaati va psixologik holatini inobatga olishi konfliktning konstruktiv hal etilishiga xizmat qiladi.

Konflikt paytida pedagog tomonidan qo'llanilgan empatik yondashuv, tinglay bilish qobiliyati va adolatli qaror qabul qilinishi o'quvchilarga ham shunday madaniyatni o'rganishga yordam beradi.

Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasini rivojlantirishda quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi mumkin:

Empatik kommunikatsiya mashqlari – talabalarning hissiy ehtiyojlarini tushunishga yordam beradi.

Axloqiy dilemma metodlari – talabalarni murakkab axloqiy qarorlarni qabul qilishga o'rgatadi.

Refleksiv jurnal va tahlil mashqlari – pedagog va talaba orasidagi o'zaro tajriba va fikr almashinuvni mustahkamlaydi.

Sotsiopedagogik loyihalar – talabalarga ijtimoiy mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasi talim jarayonining sifatini quyidagi mezonlar orqali baholash mumkin:

O'quvchilarning axloqiy fazilatlar va ijtimoiy ko'nikmalarining rivojlanishi

Psixologik muhitning barqarorligi va stress darajasi

O'quvchilarning motivatsiyasi, faoliyatga qiziqishi va tashabbuskorligi

Sinfdagi konstruktiv muhokama va hamkorlik darajasi

Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasi o'quvchilarga nafaqat bilim berishda, balki ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni shakllantirishda ham namuna bo'ladi.

Empatik yondashuv talabalarda ishonch, xavfsizlik va ichki motivatsiyani oshiradi.

Interaktiv metodlar – muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish, guruh ishlari, rol o'yinlar – pedagogning axloqiy pozitsiyasini amalda namoyon qiladi. Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasi shaxsiy qadriyatlar, kasbiy etik me'yorlar va pedagogik metodlarni uyg'unlashtiradi:

Baholashda adolat va shaffoflikni saqlash,

Talabalarni rag'batlantirishda axloqiy printsiplarga amal qilish

Konfliktlarni hal etishda konstruktiv va empatik uslub qo'llash.

Bu integratsiya talim jarayonining ijobiy psixologik muhitini yaratadi va o'quvchilarning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasi doimiy refleksiya orqali mustahkamlanadi:

Pedagog o'z faoliyatini tahlil qilib, xatolarini aniqlaydi va ularni bartaraf qiladi,

O'quvchilarning reaksiyalari va muvaffaqiyatlarini kuzatadi,

Kasbiy va axloqiy qarorlarni o'zaro uyg'unlashtirib, shaxsiy namunani kuchaytiradi.

Pedagogning manaviy-axloqiy pozitsiyasining tarbiyaviy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi:

Talabalar orasida hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish,

Axloqiy va madaniy qadriyatlarni qabul qilish,

Sinfdagi motivatsiya, diqqat va ishtiyoq darajasini oshirish,

Ijtimoiy muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish.

Pedagogning ma'naviy pozitsiyasining yana bir muhim ko'rinishi — refleksiv faoliyatdir. Refleksiya pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishi, xatti-harakatlarini baholashi va o'zini takomillashtirishga bo'lgan ichki ehtiyojidan kelib chiqadi. Refleksiv yondashuv kuchli bo'lgan o'qituvchi o'zining ma'naviy qadriyatlari bilan kasbiy faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni yaxshiroq his qiladi, pedagogik qarorlarni mas'uliyat bilan qabul qiladi, xatolarini tan oladi va ularni bartaraf etishga intiladi.

Shu bilan birga, pedagogning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining mehnatga bo'lgan munosabati, kasbiy burchni bajarishdagi vijdonlilik, jamiyat oldidagi mas'uliyat hissi o'quvchilarning shaxsiy-professional rivoji uchun ramziy model vazifasini bajaradi. Bu jarayon ta'lim psixologiyasida "identifikatsiya mexanizmi" orqali izohlanadi. Mazkur tahlillarning barchasi pedagogning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi ta'lim jarayonining nafaqat psixologik, balki tarbiyaviy, ijtimoiy va ma'naviy sifat ko'rsatkichlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu sababli pedagogning ma'naviy pozitsiyasini mustahkamlash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qoraladi.

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi pedagogning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasining tarkibiy tuzilmasi va ta'lim jarayonidagi ta'sir darajasini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Nazariy-tahliliy metod: ma'naviy tarbiya, pedagogik etika, deontologiya va kommunikativ madaniyatga doir ilmiy manbalar tizimli o'rganildi.

2. Pedagogik kuzatuv: o'quv jarayonida o'qituvchining muloqot uslubi, axloqiy pozitsiyasining amaliy namoyonlari kuzatildi.

3. Suhbat va anketa: talabalar va o'qituvchilarning pedagogning axloqiy pozitsiyasiga nisbatan subyektiv qarashlari o'rganildi.

4. Qiyosiy tahlil: turli pedagogik uslublar o'quvchilarning ma'naviy rivojiga ta'siri nuqtai nazaridan solishtirildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari pedagogning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi ta'lim jarayonining mazmuni va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ma'naviy pozitsiyaning kuchli bo'lishi o'quvchilarda ijobiy axloqiy fazilatlar, mas'uliyat, hurmat, ishonch, tolerantlik va hamkorlik kabi ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Pedagogning shaxsiy namunasi ta'lim jarayonining eng ta'sirchan tarbiyaviy vositasidir.

Ushbu pozitsiya ta'lim jarayonida:

— shaxslararo muloqot sifatini oshiradi;

- o‘quvchilarning ma’naviy rivojini tezlashtiradi;
- psixologik iqlimni barqarorlashtiradi;
- pedagogik hamkorlikni kuchaytiradi;
- ta’lim samaradorligini oshiradi.

Pedagogning ma’naviy-axloqiy pozitsiyasini rivojlantirish uchun refleksiv mashg‘ulotlar, axloqiy dilemmalar ustida ishlash, empatik kommunikasiya treninglari va kasbiy etika bo‘yicha metodik ko‘mak zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Omonova M. Deontological Culture in Future Educators. International Conference on Science, Education & Law, New York, 2025.
- 2.Rogers C. On Personal Values and Education. Houghton Mifflin, 1969
- 3.Noddings, N. Caring: A Relational Approach to Ethics and Moral Education. – Berkeley: University of California Press, 2013.
- 4.Hassan, K. “Teacher’s Moral Agency and Its Influence on Students’ Development.” Journal of Educational Ethics, 2020.
- 5.Hasanov, S. Pedagogik mahorat va pedagog etikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
- 6.UNESCO. Teachers’ Professional Values and Ethics in Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.